


# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## 2024- YIL YANVAR- SENTABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR






2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 50 427,9 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 15,4 % yoki 7 760,5 mlrd so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 11,0 % ni yoki 5 552,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 44 875,7 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 89,0 % ni tashkil etdi.



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 7 760,5 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,4 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,9 % i yoki 3 472,8 mlrd so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 12 625,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 250,1 % ni tashkil etdi.

## 2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi mlrd.soʻmda	2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan %da	Ulushi % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>50 427,9</b>	<b>145,5</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon sh	1 480,0	94,5	2,8
Olmaliq sh	17 437,7	160,9	34,6
Angren sh	3 968,5	292,0	7,9
Bekobod sh	2 057,6	90,8	4,1
Ohangaron sh	728,2	102,4	1,4
Chirchiq sh	1 944,5	116,6	3,9
Yangiyoʻl sh	299,6	92,5	0,6
Oqqoʻrgʻon t	580,6	458,9	1,2
Ohangaron t	2 674,3	128,1	5,3
Bekobod t	343,3	98,7	0,7
Boʻstonliq t	1 643,2	92,2	3,3
Boʻka t	744,6	304,1	1,5
Quyichirchiq t	1 324,3	97,7	2,6
Zangiota t	2 182,3	135,4	4,3
Yuqori Chirchiq t	5 076,8	227,7	10,1
Qibray t	2 221,1	102,3	4,4
Parkent t	295,3	68,5	0,6
Piskent t	638,3	220,5	1,3
Oʻrta Chirchiq t	812,0	75,2	1,6
Chinoz t	719,0	218,0	1,4
Yangiyoʻl t	1 936,6	167,2	3,8
Toshkent t	1 320,1	199,8	2,6

## Qurilish-montaj ishlari



## Mashina, uskuna, inventar

## Boshqa xarajatlar

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha 26 494,4 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 52,5%), mashina, uskuna va inventarlarga 20 522,8 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 40,7 % ini tashkil etdi va boshqa xarajatlarga 3 410,7 mlrd. so'm ya'ni 6,8 % i o'zlashtirildi.

74,8 %

## Yangi qurilish

14,9 %

## Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya



10,3 %

## Boshqa yo'nalishlar

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Olmaliq shahrida kuzatildi – 40,5 % yoki 10 739,4 mlrd so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Bekobod tumanida kuzatilib, 0,6 % ni yoki 169,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha Olmaliq shahrida eng yuqori ko'rsatkich – 32,1 % yoki 6 583,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so‘m

	Jami	To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqa va Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Toshkent viloyati	<b>34 732,6</b>	<b>12 625,2</b>	<b>2 477,9</b>	<b>19 629,5</b>
Nurafshon sh	726,5	156,5	540,8	29,2
Olmaliq sh	15 171,3	203,3		14968
Angren sh	2 879,3	2 658,5		220,8
Bekobod sh	1 098,2	265,6		832,6
Ohangaron sh	386,7	386,7		
Chirchiq sh	1 118,9	630,7	60,2	428
Yangiyo‘l sh	182,4	81,6	23,4	77,4
Oqqo‘rg‘on t	426,9	206,6		220,3
Ohangaron t	2 143,6	1 753,6		390
Bekobod t	157,5			157,5
Bo‘stonliq t	648,4	134,3	304,0	210
Bo‘ka t	519,5	486,8		32,8
Quyichirchiq t	879,6	366,6	294,3	218,6
Zangiota t	836,3	431,0	257,6	147,7
Yuqori Chirchiq t	3 861,6	3 468,8		392,8
Qibray t	607,0	253,8	201,8	151,5
Parkent t				
Piskent t	368,1	309,3		58,8
O‘rta Chirchiq t	411,1	42,1		369
Chinoz t	403,8	321,2	9,1	73,5
Yangiyo‘l t	1 520,2	147,1	786,7	586,4
Toshkent t	385,6	321,2		64,4

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida 34 732,6 mlrd so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 68,9 % ini xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.**

**Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 12 625,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 22 107,3 mlrd so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.**



**E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!**

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: **(71) 202-86-70,**